

TURKISTONDA KREDIT-SSUDA VA OMONAT SHERIKLIKLARI TARIXI (1870-1917)

*Nasirov Otabek Nazirjanovich, Toshkent iqtisodiyot pedagogika
instituti dotsenti, tarix fanlari nomzodi*

HISTORY OF CREDIT-LOAN AND DEPOSIT PARTNERSHIPS IN TURKESTAN (1870-1917)

*Nasirov Otabek Nazirzhanovich, Associate Professor of the
Tashkent Institute of Economics and Pedagogy, Candidate of
Historical Sciences*

ИСТОРИЯ КРЕДИТНО-ССУДНЫХ И ДЕПОЗИТНЫХ ТОВАРИЩЕСТВ В ТУРКЕСТАНЕ (1870-1917)

*Насиров Отабек Назиржанович, доцент Ташкентского
института экономической педагогики, кандидат
исторических наук*



<https://orcid.org/009-007-2726-3811>

tel: 90 024 98 88

e-mail:

otabeknasirov8@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada chor Rossiyasi hukmronligi davrida Turkistonda tashkil qilingan mayda kredit, ssuda-omonat va matlubot shirkatlarining tashkil qilinishi, ular faoliyatining asosiy maqsadi ko'rsatilib berilgan. Shuningdek, har birining mohiyati bir-birlaridan farqli holati, ish yuritish tartiblari, Turkiston o'lkasi har bir hududida tashkil qilingan ssuda-omonat va kredit shirkatlarining nomlari, soni va nima sababdan ma'lum hududlarda kredit va boshqa ssuda-omonat shirkatlari ochilganligi ham ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kredit, ssuda-omonat, matlubot, artel, shirkat, uyezd, desyatina, daromad.

Abstract: This article reveals the essence of the formation and the main purpose of the activities of credit, loan and savings and consumer partnerships in Turkestan during the reign of Tsarist Russia. Also, separately for each of them the meaning of their activities and distinctive features of partnerships. In addition, the article writes about the names of each credit and loan and savings partnership by region, the number and reasons for which in some loan and savings in others credit partnerships were opened.

Key words: credit, loan-deposit, savings, artel, company, district, desyatina, profit.

Аннотация: В данной статье раскрывается суть образования и основная цель деятельности кредитных, ссудо-сберегательных и потребительских товариществ в Туркестане в период правления царской России. Также, по отдельности каждого из них значения деятельности и различительные черты товариществ. Кроме этого в статье пишется о названиях каждого кредитного и ссудо-сберегательного товарищества по регионам, численность и причины, по которым в одних открывались ссудо-сберегательные, в других кредитные товарищества.

Ключевые слова: кредит, ссудо-сберегательный, потребительский, артель, товарищество, уезд, десятина, прибыль.

KIRISH. Rossiya imperiyasi XIX asrning 80-yillaridayoq Turkiston o'lkasida paxtachilikni

keng miqyosda rivojlantirish maqsadida kichik ssuda-omonat va kredit shirkatlarini tashkil qilinishiga ko'maklasha boshladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

1884-yili 2-noyabrda Turkiston shahrida Turkistonda birinchi ssuda-omonat shirkati tashkil qilindi[1]. Lekin shirkatning keyingi faoliyati to'g'risidagi m'lumotlar yo'q. 1885-yili Chimkent uyezdida ham ssuda-omonat shirkati tashkil qilindi[2].

1907-yilga kelib paxta hosilining kamayishi natijasida, imperiya hukumatini ushbu masalada keng ko'lamda shug'ullanishga majbur qildi. Bu borada, dehqonlarga qulay bo'lgan kredit olish imkoniyatlarini yaratib berishga harakat qilindi.

Turkiston o'lkasida birinchilardan bo'lib faoliyat yuritgan kredit shirkati 1907-yili 6-mayda Qo'qonda tashkil qilindi[3].

1909-1910-yillar mobaynida Turkistonda kredit va ssuda-omonat shirkatlarining ko'payishi kuzatiladi. Faqat shu yillarda Kaspiy oldi viloyatida 17 ssuda-omonat va kredit shirkatlari tashkil topib, ulardan 7tasi Marv uyezdida, 7tasi Ashxobod uyezdida, 2tasi Tajan va 1ta baliqchilar kredit shirkati Krasnovodsk uyezdida joylashgan edi. 1911-yilga kelib viloyatdagi shirkat a'zolarining jami soni 2530taga yetib, ular tomonidan 133048 so'm 50 tiyin hisobida ssudalar olindi[4]. 1913-yili 6 kredit va 42ta ssuda-omonat shirkatlari bo'lib, a'zolari 9294 ta, 1914-yili esa 6ta kredit va 52 ssuda-omonat shirkatlari bo'lib, shundan Ashxobodda 23 ssuda-omonat, Marvda 21 ssuda-omonat, Tajanda 8ta ssuda-omonat va 1ta kredit, Krasnovodskda 1ta kredit shirkati bo'lgan[5].

MUHOKAMA. Imperiya hukumati paxtaga ixtisoslashgan hududlarda ssuda-omonat shirkatlariga nisbatan kredit shirkatlarini ko'paytirishga harakat qilgan. Farg'ona viloyati bo'yicha 1911-yili kredit va ssuda-omonat shirkatlarning soni 4 ta bo'lsa, 1913-yili 63 ta, 1914-yili esa 68 taga yetib, shundan 64 tasi kredit va 4ta ssuda-omonat shirkatlari bo'lgan[6]. 1914-yili ular Sirdaryo viloyatida 139taga, Samarqand viloyatida 112taga yetgan. 1912-yili Yettisuv viloyatining Verniy uyezdida bor-yo'g'i 5ta kredit va 1ta ssuda-omonat shirkati tuzilgan.

Paxtachilik sohasi bilan mayda kredit shirkatlarining soni ko'payib borgan. Samarqand viloyati bo'yicha davlat agronomi vazifasini bajargan Glushanovskiy 1912-yili 8-oktabrda Yer va davlat mulki boshqarmasi va viloyat harbiy gubernatoriga "Qishloq xo'jaligi ishlarida mayda kredit shirkatlari bo'yicha doimiy kengash" tuzish taklifi bilan chiqdi. Shu asosda 24 oktabrda Samarqand viloyati harbiy gubernatori buyrug'i bilan kengash tuzildi[7].

Kredit va ssuda-omonat shirkatlari milliy tarkibi jihatidan asosan uch guruhga, ya'ni rus, mahalliy millat vakillari va aralash (tarkibida turli xil millat vakillari) guruhlarga bo'lingan. 1914-yili Sirdaryo viloyatida 139ta mayda shirkat bo'lib, ularning 114tasi mahalliy aholi, 23ta rus, 1ta aralash va 1ta nemis millati vakillariga tegishli bo'lgan. Kaspiy oldi viloyatidagi 58ta shirkatdan 54ta mahalliy, 2ta rus, 1ta aralash va 1ta nemis millatiga tegishli bo'lgan. Samarqand viloyatidagi 112ta mayda shirkatning 1tasi rus, qolganlari mahalliy millat vakillariga tegishli bo'lgan[8]. O'lkada mayda shirkat a'zolarining aksariyat qismi mahalliy millat vakillaridan iborat bo'lgan.

1914-yili Davlat banki tomonidan Andijon va Skobelev uyezdlarida joylashgan 61 kredit va 41ta ssuda-omonat shirkatlariga 1367733 rubl miqdorida mablag' berilib, shundan 913987 rubl kredit va 453746 rubl ssuda-omonat shirkatlariga ajratildi. Davlat bankining uyezdlardagi kassalaridan 104825 rubl berilib, shundan 21ta kredit shirkatiga 82466 rubl miqdorida, 4ta ssuda-omonat shirkatiga 22359 rubl, jami 2ta uyezd bo'yicha 1472558 rubl berilgan[9].

NATIJALAR. Shirkatlarning ko'payishi mahalliy sudxo'rlarning kamayishiga olib keldi. Masalan, Qo'qon uyezdida Novqat shirkati tashkil topgan paytda qishloqda 1000 rubldan 3000 rublgacha mablag'i bo'lgan 20 ta sudxo'r bo'lsa, 1 yildan keyin ular 5 kishiga kamaygan, 1915-yilda esa birorta ham sudxo'r qolmagan[10]. 1915-yilga kelib Turkiston o'lkasida kredit va ssuda-omonat shirkatlarining soni 727taga yetdi.

Turkiston o'lkasida matlubot shirkatlari ko'p holatlarda aksiyadorlik jamiyatlari va savdo-sanoat sohasidagi shirkatlarining qoshida vujudga kelgan.

Chimyon aksiyadorlik jamiyati korxonalari ishchilari 1911-yil 19-iyunda Chimyon uyezdining Mindan qishlog'ida matlubot shirkatini tashkil qilishdi. 1913-yili shirkat tomonidan 631 rubl 14 kopeyek, 1914-yili esa 687 rubl 49 kopeyek sof daromad olingan[11].

Rossiya imperiyasida matlubot shirkatlarining soni 1914-1915-yillar orasida keskin o'sishi bilan xarakterlanadi. 1907-yili imperiya bo'yicha jami 1048ta bo'lgan bo'lsa, 1908-yili 1250ta, 1909-yili 1087ta, 1910-yili 1200ta, 1911-yili 1218ta, 1912-yili 1752ta, 1913-yili 1589ta, 1914-yili 1080tani tashkil qilgan, 1915-yili esa 13000 dan ortib ketgan[12].

XULOSA qilib aytganda, Imperiya hukumati asosiy e'tiborini Rossiya iqtisodiyoti uchun katta foyda keltirishi mumkin bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirishga qaratdi. Shu sababli ssuda-omonat va kredit shirkatlarini ko'paytirishga e'tiborini qaratdi. Lekin mahalliy aholining ijtimoiy hayotini yengillatish, iqtisodiy ahvolini yaxshilashga qulay sharoitlar bo'lgan taqdirda ham turli bahonalar bilan bunday ishlar orqaga surildi. Shu tufayli o'lkada tashkil etilgan matlubot shirkatlarining keng qamrovli faoliyat yuritish imkoniyati bo'lmadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. ЎзРМДА. ф.-17, 1-рўйхат, 20063– иш, 10–варак; ф.-1, 16-рўйхат, 1854– иш, 10–варак.
2. ЎзРМДА. ф.-17, 1-рўйхат, 19973– иш, 35, 39, 49, 52 –вараклар.
3. ЎзРМДА. ф.И-18, 1-рўйхат, 6652– иш , 2–варак.
4. Обзор Закаспийской области за 1911 год. 1912.- С. 212, 213.
5. Труды хлопкового совещания 27- 29 декабря 1914 года в г.Ташкенте. - Т., 1915.-С.80.
6. ЎзРМДА. ф.- 16, 1-рўйхат, 927^а – иш, 115–варак.
7. ЎзРМДА. ф.И- 7, 1-рўйхат, 3153–иш, 9–варак.
8. ЎзРМДА. ф.-16, 1-рўйхат, 927–иш, 55, 59, 63–вараклар.
9. ЎзРМДА. ф.- 16, 1-рўйхат, 927–иш, 115–варак.
10. Туркистон чор мустамлакачилиги даврида. - Т., 2000.- Б. 245.
11. ЎзРМДА, ф.И-19, 1-рўйхат, 27899–иш , 4, 6–вараклар.
12. Меркулов А.В. Исторический очерк потребительской кооперации в России. – М., 1917.- С. 54, 60.

